

O‘ZBEKISTONDA OILA PSIXOLOGIYASINING RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN E‘TIBOR

Abduxoliqova Zilola Akbar qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

«Psixologiya» yo‘nalishi 1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20726539>

Annotatsiya: Mazkur maqolada oila psixologiyasining mohiyati, Oila psixologiyasi fanining O‘zbekistonda rivijlanish tarixi yoritiladi. Shuningdek, oilada sog‘lom muhitni shakllantirish, ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro hurmat va ishonchning psixologik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida oilaviy munosabatlarni mustahkamlashning samarali usullari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Oila psixologiyasi, oilaviy munosabatlar, psixologik muhit, ota-ona vafarzand, muloqot, tarbiya, shaxs rivojlanishi, oilaviy nizolar, psixologik yordam, ijtimoiy muhit.

Аннотация: В данной диссертации рассматривается сущность семейной психологии, влияние семейной среды на развитие личности и важность психологических взаимоотношений в семье. Также анализируются психологические аспекты создания здоровой семейной атмосферы, общения между родителями и детьми, взаимного уважения и доверия. Результаты исследования показывают эффективные методы укрепления семейных отношений.

Ключевые слова: Психология семьи, семейные отношения, психологическая среда, родители и дети, общение, воспитание, развитие личности, семейные конфликты, психологическая помощь, социальная среда.

Annatation: This thesis discusses the essence of family psychology, the influence of the family environment on the development of the individual, and the importance of psychological relationships in the family. It also analyzes the psychological aspects of creating a healthy environment in the family, communication between parents and children, mutual respect and trust. The research results show effective methods for strengthening family relationships.

Keywords: Family psychology, family relationships, psychological environment, parents and children, communication, upbringing, personal development, family conflicts, psychological support, social environment.

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanadi. Insonning shaxs sifatida shakllanishi, uning axloqiy qadriyatlari, dunyoqarashi va xulq-atvori avvalo oilada rivojlanadi. Shu sababli oila psixologiyasi shaxs rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Oiladagi psixologik muhit, ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlar, o‘zaro hurmat va ishonch jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Hozirgi kunda oila psixologiyasini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib bormoqda. Chunki zamonaviy jamiyatda turli ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillar oilaviy munosabatlarga ta‘sir qilmoqda. Oiladagi nizolar, muloqot yetishmasligi, stress va tushunmovchiliklar shaxs rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli oilada sog‘lom psixologik muhitni yaratish, o‘zaro hurmat va mehr-muhabbatni mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Mazkur maqola maqsadi oila psixologiyasining mohiyatini ochibberish, oiladagi psixologik munosabatlarning shaxs rivojlanishiga ta‘sirini tahlil qilish va sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat. Oila psixologiyasi – bu oiladagi shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar, ularning ruhiy holati,

o‘zaro muloqoti va ijtimoiy-psixologik jarayonlarni o‘rganuvchi psixologiya sohasi hisoblanadi. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy bo‘g‘ini bo‘lib, shaxsning shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Insonning xarakteri, dunyoqarashi, qadriyatlar va xulq-atvori avvalo oilada shakllanadi. Oilada sog‘lom psixologik muhit bo‘lishi farzandlarning to‘g‘ri tarbiyalanishiga yordam beradi. Ota-onaning mehribonligi, e‘tibori va qo‘llab-quvvatlashi bolada o‘ziga ishonchni kuchaytiradi. Aksincha, oiladagi nizolar, tushunmovchiliklar va sovuqqon munosabatlar bolalarning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oila psixologiyasida muloqot muhim o‘rin tutadi. Ittifoq davrining so‘nggi bosqichlarida yoshlarni oilaviy hayotga maxsus tayyorlashga dastlabki urinish ham muvaffaqiyatsiz tugadi. Chunki u vaqtlarda masalaga ilmiy yondashilmagan, jumladan, har bir xalqning o‘ziga xos etno - psixologik xususiyatlari hisobga olinmagan, nomi psixologiya bo‘lsa-da, mazmunan pedagogikaga yaqin turgan qo‘llanmalar bilan o‘qitilgan edi. O‘zbekiston mustaqilligi tufayli Respublikada oila muammolari davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan masalalar qatoridan o‘rin oldi ¹.

1998-yilni “Oila” yili deb e‘lon qilinishi, “Oila” ilmiy amaliy Markazi (hozirgi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot markazi)ning tashkil etilishi, Respublikada oila manfaatiga qaratilgan maxsus Davlat dasturining qabul qilinishi, uning mantiqiy davomi sifatida 1999-yilni “Ayollar yili” deb e‘lon qilinishi, viloyatlarda oilaga xizmat qiluvchi turli maslahatxonalarining tashkil etilishi, oila muammolarini ilmiy tadqiq etish maqsadida O‘zbekiston tarixida birinchi bor oila psixologiyasi muammolari bo‘yicha tadqiqotlar olib boradigan ilmiy kadrlarni tayyorlash maqsadida aspirantura tashkil etilishi, ularga aspirantlarning qabul qilinishi yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o‘rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog‘lomligiga bog‘liq bo‘lganidek, butun organizm o‘z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o‘rni bo‘lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir.

Har bir oilaning sog‘lom bo‘lishi, ularda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanib, so‘ng o‘zi yashayotgan davlatning fuqarosi sifatida o‘z mamlakati - ning iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta‘minlovchi, hal qiluvchi omil bo‘lgan inson kamolotida oilaning tutgan o‘rni beqiyosdir. Nima sababdan biz ko‘proq oila va unda yuz beradigan munosabatlarga e‘tiborli bo‘lamiz, nima sababdan oila maskanida o‘zimizni yaxshi, baxtli his etsak, ishimiz ham yu rish gandek, omadimiz chopgandek bo‘ladi? Chunki oila bizning hayotimizdagi eng aziz va muqaddas dargoh! Faqat oilagina insonning baxtli bo‘la olishi, o‘zini kimlargadir kerakli his eta olishi yoki bo‘lmasa o‘zini ezilgan, omadsiz sezishiga sabab bo‘la oladi. Shuningdek, jamiyat taraqqiyotining kutilgan darajaga chiqa olmasligi, uning taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi, uning inqiroziga olib keluvchi kuchlarning yuzaga kelishida ham oilaning hissasi kattadir. Chunki nosog‘lom psixologik muhitli, nizo-janjalli, o‘zaro mehr-oqibatsiz muhitda dunyoga kelib, shakllangan bola, keyinchalik nafaqat o‘z ota-onasi, aka-ukalariga nisbatan, balki atrofdagilarga, qolaversa, o‘zi yashagan jamiyatga nisbatan ham mehr-oqibatsiz, shafqatsiz, zolim, xudbin, yurt manfaatlariga zid, tashqi kuchlar ta‘siriga oson beriluvchan, shu asosda esa o‘z oilasi, o‘z xalqi, o‘z yurti uchun xavfli odam bo‘lib yetilishi mumkin.

Oila va uning jamiyat hayotidagi o‘rni beqiyos bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 14-bobi oila, bolalar va yoshlar masalalariga bag‘ishlangan². Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi,

¹ G‘oziyev E.G. Umumiy psixologiya. “O‘qituvchi” T: 45-68-b.

² Qonunchilik ma‘lumotlari Milliy bazasi - [lex.uz https://lex.uz/docs/-6445145#-6445716](https://lex.uz/docs/-6445145#-6445716)

taraqqiyotini belgilovchi, hal qiluvchi omil hisoblanadi. Hozirgi vaqtda jamiyatimiz uchun, insoniyat taraqqiyoti uchun, mustaqilligimiz istiqbollari uchun jiddiy xavf tug‘dirayotgan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ichki va tashqi omillarning tahdidi ortib borayotgan ayni vaqtda oilalar mustahkamligini ta’minlash va bu masala to‘g‘ri hal etilishining asosiy yo‘li bo‘lmish yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalasi hech kechiktirib sustkashlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydigan, o‘ta jiddiy yondashishlarni talab etuvchi davlat, hukumat miqyosidagi dolzarb masaladir. Chunki insoniyat va jamiyatimiz taraqqiyoti shu masalani biz bugun qanday hal qilishimizga bog‘liq.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy oila modelini asrab-avaylash, oilaviy nizolarning oldini olish va sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Oila psixologiyasi mustaqil fan va oliy ta‘lim muassasalarida maxsus kurs sifatida o‘qitila boshlandi. O‘zbekistonlik olimlar tomonidan o‘zbek oilalarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, milliy mentalitet, sharqona tarbiya usullari, er-xotin o‘rtasidagi muloqot madaniyati va farzand tarbiyasiga oid maxsus darslik va qo‘llanmalar yaratildi. Hozirgi kundagi holati Bugungi kunda oila psixologiyasi O‘zbekistonda jadal rivojlanayotgan sohalardan biridir³.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, O‘zbekistonda oila psixologiyasi mustaqil fan va amaliyot sohasi sifatida shakllanish hamda yuksalishning o‘ziga xos boy tarixiy yo‘lini bosib o‘tdi. Ushbu soha ildizlari Sharq mutafakkirlarining o‘g‘itlari va milliy qadriyatlarimizga borib taqalsa-da, zamonaviy ilm-fan talablari darajasidagi rivojlanishi bevosita istiqloq yillari hamda undan keyingi davrdagi chuqur ijtimoiy-siyosiy islohotlar bilan bog‘liqdir. O‘zbekistonda oila psixologiyasining rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish quyidagi muhim xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. “O‘qituvchi” T: 2002. 45-68-b.
2. Qonunchilik ma‘lumotlari Milliy bazasi - lex.uz <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445716>
3. Shoumarov G‘.B. Umumiy psixologiya. “Faylasuflar milliy jamiyati”. T: 2008. 14-15-b.

³ Turon.edu.uz oila va jamiyat nomli sayti.